

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING YASHASH MANZILLARIDAN UZOQ MUDDATGA KETGAN SHAXSLAR BO'YICHA ISHLASH FAOLIYATINI HUQUQIY TA'MINLASH

Tashtemirov Anvar

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti

Usmonova Yulduz Shokir qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14172860>

**Annotatsiya:** O'tgan yillar davomida fuqarolarimizning uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda qabul qilinib, ularning talablari jamiyat hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga uzoq muddatga ketgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan amalga oshirilayotgan tezkor- profilaktik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida hududiy ichki ishlar organlariga bir qator sharx, ko'rsatma va tavsiyalar doimiy ravioshda yuborib kelinayotganligiga qaramasdan, aksariyat ichki ishlar organlarida ushbu yo'nalishdagi ishlar talab darajasida yo'lga qo'yilmasdan qolmoqda.

**Tayanch so'zlar:** Profilaktika inspektori, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik, profilaktik chora- tadbirlar, "filtr" guruhlar faoliyati, uzoq muddat, uzoq muddatga ketgan shaxs.

Bugungi kunda, mamlakatimiz fuqarolarining uzoq muddatga chet el davlatlariga chiqishlari va qaytib kelish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish ichki ishlar organlari oldida turgan asosiy vazifalardan birdir. Shu sababli ham uzoq muddatga chet el davlatlariga ketganlar bilan ishlash ichki ishlar organlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib, u bilan tizimning deyarli barcha sohaviy xizmatlari shug'ullanmoqdalar. Ayniqsa, fuqarolarning qonunga xilof tarzda boshqa davlatlarga chiqib ketishlarining oldini olishda ichki ishlar organlari, xususan, profilaktika, tezkor qidiruv, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish va boshqa bir qator xizmatlarning roli katta.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqishlari tartibini belgilab beruvchi bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, Ozbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi PF-5005-sonli farmoni, "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833- sonli, "Ichki Ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora -tadbirlar to'g'risida"gi (12.04.2017) PQ-2896-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi (05.07.2017) PF-5106-sonli, "Toshkent shaxrida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi (14.02.2018) PQ-3528-sonli, "Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi (19.06.2018) PQ-3786-sonli qarorlari singari normative-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi asosida ichki ishlar organlari profilaktik faoliyatida tub islohotlar amalga oshirilib, ular yuqori bosqichga ko'tarildi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash huquqbazarliklarni oldini olish va profilaktikasi bo'yicha Respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratish ichki ishlar organlari

tizimida tub islohotlar boshlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5005-sonli farmonining qabul qilinishi bilan bog'liq. "Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtaligini qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farivonligini yuksaltirish ,aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlardan kozlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf -xatar va taxdidlar, avvalo, xalqaro terrorizam, diniy ekstrimizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yemoqda.

Yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishslash faoliyatini tashkil etishda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosatdan kelib chiqib amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatimizda huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida huquqbazarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish , huquqiy nigelizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirishga qaratilgan , shu jumladan ichki ishlar organlari tayanch punktlari, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat idoralari va tashkilotlarida "ochiq eshiklar kuni" ni tashkil etish orqali tizimli chora -tadbirlarni amalga oshirish;

-qonuniylik ahvolini va huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroficha muhokama qilish uchun joylarda , birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarni hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

-ijtimoiy ahamiyati muhim bo'lgan sud muhokamalari bo'yicha sayyor sud majlislarini o'tkazish;

-aholi turmushining ijtimoiy -iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, huquqbazarlik sodir etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida uyma -uy yurishlarini tshakil etish.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.mirziyoyev ta'kidlaganidek "Fuqarolar har bir icki ishlar organlari xodimi siymosida o'z himoyachisini ko'rish kerak"

#### **Davlat bojxona xizmati organlari o'z vakolatlari doirasida:**

-Ichki ishlar organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti hamda ularning organlari davlat bojxona postlari orqali uzoq muddatga xorijiy davlatlarga ketgan shaxslar haqida xabar beradi.

#### **Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish organlari o'z vakolatlari doirasida:**

Yashash joyidan uzoq muddatga xorijiy davlatlarga chiqib, qaytib kelgan, yordamga muhtoj fuqartolarga yordam ko'rsatilishini, ularga ishga joylashishida ko'maklashishini ta'minlash.

Chet elga vaqtincha chiqayotganda fuqarolarga chet elga boorish uchun 2 yil mobaynida amal qiladigan ruxsatnoma yozuvi stikeri rasmiylashtiriladi. Fuqarolar ko'rsatilgan muddat mobaynida bir necha martta chet elga chiqishi mumkin.

Respondentlarning fikricha, ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida bu borada qonun va qonunosti normativ hujjatlar qabul qilinishi (38,6%), amaliyotdagi qarama-qarshi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirilishi (49,3%), mavjud amaldagi qonun hujjatlarning ijrosi to'liq ta'minlanishi (24%) hamda migratsiyani tartibga solishga qaratilgan uzoq muddatli Komsepsiya ishlab chiqilishi (17,0%) ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

### References:

1. Erkinovich A.H. Ayrim xorijiy davlatlarda preventiv (ma'muriy) nazorat ostidagi shaxslar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari //Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 3. – S. 120-124.
2. Axmedov H. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar bilan olib boriladigan profilaktik chora-tadbirlarning mohiyati va ahamiyati //Evraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk. – 2023. – T. 3. – №. 3. – S. 52-57.
3. Axmedova S.T., Oxunov Z. M. Osobennosti primeneniya administrativnyx vzyiskaniy za upravlenie avtotransportom v sostoyanii opyaneniya //Evraziyskiy jurnal texnologiy i innovatsiy. – 2024. – T. 2. – №. Special Issue 6. – S. 48-54.
4. Axmedova, S.T. (2022). Ichki ishlar organlari tizimidagi ma'muriy-xuquqiy isloxoxtlar inson kadri uchun. *Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk*, 2(10 Special Issue), 15-19.
5. Aliqulovich T.A., Atxam o'g'li M. X. Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 24. – S. 230-235.